



ETHNO-TERRITORIAL ASPECTS OF THE SPIRITUAL CULTURE OF THE ROMA PEOPLE

Mashhura Abdumuminovna Ruziyeva

Lecturer at Termez University of Economics and Service

Doctor of Philosophy (PhD) in History

mashxura.ruziyeva@mail.ru

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Roma, Gypsies, spiritual culture, ethnoregional aspects, customs, folklore, ethnic identity, cultural adaptation, traditions.

Received: 23.05.26

Accepted: 24.05.26

Published: 25.05.26

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the ethnoregional aspects of the spiritual culture of the Roma people. The study examines their cultural characteristics formed during different historical periods. In particular, it explores how regional influences have affected the transformation of religious beliefs, folklore traditions, family values, customs, and ritual systems. The article also highlights the interaction between tradition and modernity in Roma spiritual culture, as well as the role of ethnoregional factors in preserving ethnic identity. The research results show that Roma culture represents a complex socio-cultural system formed through continuous movement and adaptation.

LO'LILAR MA'NAVIY MADANIYATIDAGI ETNOHUDUDIY JIHATLAR

Mashxura Abdumuminovna Ro'ziyeva

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

mashxura.ruziyeva@mail.ru

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: lo'lilar, romani, ma'naviy madaniyat, etnohududiy jihatlar, urf-odatlar, folklor, etnik o'zlik, madaniy moslashuv, an'analar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lo'lilarning ma'naviy madaniyatidagi etnohududiy jihatlar keng yoritiladi. Tadqiqotda ularning turli tarixiy davrlarda shakllangan madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, diniy e'tiqodlar, folklor an'analari, oilaviy

qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar tizimining hududiy ta'sir ostida o'zgarib borishi ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, lo'lilar ma'naviy madaniyatida an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligi, hamda etnik o'zlikni saqlash jarayonida etnohududiy omillarning roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lo'lilar madaniyati doimiy harakat va moslashuv jarayonida shakllangan murakkab ijtimoiy-madaniy tizimdir.

ЭТНОТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ ЦЫГАН

Маишхура Абдумуниновна Рузиева

Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

доктор философии (PhD) по историческим наукам

mashxura.ruziyeva@mail.ru

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: цыгане, рома, духовная культура, этнотерриториальные аспекты, обычаи, фольклор, этническая идентичность, культурная адаптация, традиции.

Аннотация: В данной статье широко освещаются этнотерриториальные аспекты духовной культуры цыган. В исследовании анализируются их культурные особенности, сформировавшиеся в различные исторические периоды. В частности, рассматривается влияние региональных факторов на трансформацию системы религиозных верований, фольклорных традиций, семейных ценностей, обычаев и обрядов. Также в статье раскрывается взаимодействие традиционности и современности в духовной культуре цыган, а также роль этнотерриториальных факторов в сохранении этнической идентичности. Результаты исследования показывают, что культура цыган представляет собой сложную социально-культурную систему, сформированную в процессе постоянного движения и адаптации.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli etnik guruhlarning ma'naviy madaniyatini, ularning tarixiy rivojlanishi va hududiy xususiyatlarini o'rganish katta ilmiy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, lo'lilar etnik guruhining ma'naviy madaniyati o'zining boy tarixiy ildizlari, murakkab rivojlanish jarayoni va turli hududiy sharoitlarga moslashgan an'analari bilan ham ajralib turadi. Ushbu maqolada lo'lilar ma'naviy madaniyatining etnohududiy jihatlari, jumladan, ularning urf-odatlari, e'tiqodlari, oilaviy qadriyatlari va turli

geografik va ijtimoiy sharoitlarda rivojlangan madaniy an'analarining o'ziga xos evolyutsiyasi ilmiy tahlil qilingan. Bu jarayonda migratsiya, mahalliy madaniyatlar bilan o'zaro ta'sir va integratsiya jarayonlarining roli ham ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, lo'lilarning ma'naviy madaniyatini etnohududiy yondashuv yordamida o'rganish nafaqat ularning noyob madaniy o'ziga xosligini tushunishga yordam beradi, balki turli xalqlar o'rtasida madaniy muloqot va bag'rikenglikni yanada chuqurlashtirishga ham hissa qo'shadi.

Bizga ma'lumki, o'zbeklarning to'ylarida kelin tomon uchun davra to'ridan joy ajratiladi, ularning hurmatiga yetishga harakat qilinadi. Lo'lilarning to'yida kelin tomon quda bilan birga xizmatda bo'ladi. Yana bir e'tiborni tortadigan jihati shundaki, ayollar, asosan, paxtalik matodan ko'ylak kiyishadi, lekin quloqlarida 2-3 tadan tillo sirg'a, barmoqlarini to'ldirib tillo uzuk, tillo zanjirlar taqishadi. Juda ko'pchilik qo'lga xino qo'yadi. Qizlar o'zlariga oro berishadi. Hind qizlariga juda o'xshab ketadi.

To'y kunduz kuni soat 10.00 da boshlanib, kechqurun 17.00 da tugashi an'anaga aylangan. To'yda minglab lo'lilar ishtirok etadi. Kelin-kuyov kelgandan so'ng, davra to'ridagi sahnaga borganga yangi matodan qilingan poyonoz to'shaladi. Kelin-kuyov kelgach, osh tarqatiladi. Oshga qadar stol ustiga salat, go'sht qo'yiladi. Oshni erkaklar tarqatadi. To'yni yoshi ulug' kishi ochib beradi, duo qiladi. Barcha duoga qo'l ko'taradi. Tabriklash uchun yoshi katta kishilarga so'z beriladi. Barcha tabriklar tojik tilida aytiladi. O'zbeklarning to'ylarida erkak-ayol, yoshlar, keksalar bir vaqtda chiqib raqsga tushishadi [1].

Lo'lilarning to'ylarida boshqa bir holatni ko'rasiz. Dastlab, yoshi keksa ayollar davraga chiqib, o'yinni boshlab berishadi. So'ngra yoshu keksa erkaklar davraga chiqishadi, so'ngra o'rta yosh ayollar raqsga chiqishadi, so'ngra o'rta yosh erkaklar, ulardan so'ng bo'ydoq yigitlar, ulardan so'ng yosh qizlar raqsga chiqishadi. Navbati bilan hamma o'z tengi bilan raqsga tushadi. Erkaklar davraga chiqqanda, birorta ayol davraga chiqmaydi, shuningdek, ayol davradaligida birorta erkak davraga chiqmaydi. Eng so'nggi navbat kelin- kuyovga beriladi. Ularning raqsiga hech kim xalaqit bermay, tomosha qilib turadi. Musiqalar ham yoshga moslab ijro etib boriladi.

To'y boshlanganda, davra raisi bir kishini bakovul bo'ladi deb e'lon qiladi. Bakovul bo'lgan odam qo'lga uzun cho'p ko'tarib olib, davrada tartib o'rnatib yuradi. Qishloqdagi yosh bolalarning barchasi to'yxonada bo'ladi, lekin davraga kirmaydi. Soat 1 da ikkinchi marta osh tarqatiladi. Qoshiq qo'yilmaydi. Soat 2 bo'lgandan so'ng davra o'rtasiga gilam to'shaladi. To'y egalari, ya'ni kuyovning ota-onasi davraga chiqadi.

Davrani olib boruvchi to'ygacha to'yona, sarpo berganlarni mikrofon orqali e'lon qiladi. Ular birma- bir chiqib, yigitning onasi yelkasiga materialni tashlaydi, yigitning otasining qo'lga pulni beradi. Bir kishi berilgan pullarni sanab sumkaga joylashtiradi. Oldinlari to'yona qilib, qo'y-

echkilar berilgan. Hozir to'yona sifatida gilamlar, materiallar va pullar, ko'rpalar berilmoqda. Berilgan sarpolar gilamga tashlanadi. To'yona berish tugagandan, so'ng oqsaqol duo qiladi, barcha davra ahli qo'l ko'tarib duo qiladi. Shundan so'ng, yana davrada o'yin- kulgi davom etadi.

Adabiyotlar sharhi. 1970-yillarda lo'lilar to'ylarida odatga aylangan bir urf bor edi. Kelin kelgandan keyin kuyov o'z uyining bo'sag'asiga yotib oladi. Barcha nomigagina turg'izishga harakat qiladi. Kuyov turmay, kelinni uy ichkarisiga kirishiga yo'l bermay yotaveradi. Kelinning «Turing, ro'zg'orni boqishni bo'ynimga olaman» degan gapi uni joyidan turg'izadi.

Lo'lilar ko'p bolali elat hisoblanishadi. 10-20 talab bolali bo'lishgan. Bolani oldirish gunoh hisoblanadi. To'ydan keyin qizning nomusi toptalgan holat bo'lsa, o'sha kechadayoq qaytarib yuborilgan. Ayollar kelinning qarindosh-urug'lari qizning pok ekanligini bilishgach, tarqalishgan. Momo kelinni cho'miltiradi [2].

Lo'lilar issiqqon bo'lishadi. Og'ir mehnat qilmaganliklari uchun, kichkinaligidan issiqdan-sovuqdan o'zlarini asramaganliklari uchun chayir, sog'lom bo'lishadi, shu sababli ular ko'p bolali bo'lishadi. Aytganini qildirolmagan lo'li erkak xotiniga «Toshga o'tiraman» deb qo'rqitadi. Lo'li ayol uchun bu taloqdek hisoblangan.

Olib qochish an'anasiga to'xtalsak, agar qizning otasi rozi bo'lmasa, yigit sevgan qizi bilan kelishib, uni olib qochadi. Keyin yigitning ota-onasi qizning uyiga olib borib, yarashish uchun to'y qilib berishadi. Lekin, qochoq qizga ota-onasi hech narsa qilib bermaydi, istasa uyda elni chaqirib, to'y qilib beradi, bo'lmasa yo'q. Ular olti oy - bir yil ota-onasinikiga borolmaydi.

«Oshtu-huronik» marosimida quyidagi voqeaga guvoh bo'ldim. Qo'shtepa qishlog'idan bo'lgan qiz Oqtepa qishlog'ida yashovchi uzoq qarindoshini yaxshi ko'radi. Yigitning uylanib, to'y qilishga imkoniyati bo'lmaydi. Ota-onasi vafot etib, amakilari qo'lida katta bo'lgan, qiz bilan kelishib qizni uyiga olib qochadi. Besh kundan keyin yigitning amakilari kechirim so'rab, yarashish uchun kelishadi. Ikki kundan so'ng, to'y olib borishni kelishishadi. Qiz tomon yaqin-qarindoshlarini chaqiradi. Bu to'yga qo'shni qishloqdagilar ham kelishadi. Yigit tomon bitta qo'y, qalin uchun berilishi lozim bo'lgan 4 million so'mning imkoniyati yetgan qismini, oshning xarajatlari, dasturxonga qo'yiladigan barcha narsani olib keladi. Non, konfet, shokoladlar, rangli suvlar, yong'oq... Musiqa bo'lmaydi. 200 yaqin odam keladi. Kuyov ham to'yda qatnashadi. Ko'rgan kishi kelin ekanligini anglay olmaydi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Lo'lilar ma'naviy madaniyatidagi etnohududiy jihatlarni ochib berishga bag'ishlangan mazkur maqolada tanlangan mavzuning ahamiyatini yoritib berish maqsadida ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy tahlil, statistic tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Lo‘li ayollari qadimda ham, hozir ham erdan beruxsat ko‘chaga chiqishmaydi.

1970-80 yillargacha «Lachak bandon» marosimi o‘tkazilgan. Marosim kayvoni, yoshi ulug‘ ayollar va endigina erga tekkan kelin ishtirokida o‘tkazilgan. Ma‘lumki, lo‘lilar juda erta turmushga chiqishadi. 13-14 yoshli qizning boshiga qishda sovuqdan asrovchi kulita kiygizilgan. Kulita yumaloq do‘ppidek bo‘lib uning orqa tomonida bir qarich enlikda 2 qarich uzunlikda bo‘lgan dumi bo‘lgan. Do‘ppi ichiga qishda sovuqdan asrash maqsadida yuqa qilib paxta solib qavilgan. Orqa tomonidagi dumi umurtqa suyagini qish faslida sovuqdan asrash vazifasini amalga oshirgan. Uning ustidan ro‘mol bog‘langan. Yangi kelin qo‘liga irg‘ay yoki tug‘dona daraxti shoxidan bo‘lgan asov tutqazilgan. Jun ipdan to‘qilgan to‘rva xaltani kelinning yelkasiga tashlangan. Bir yarim metr uzunlikdagi mato bilan kelinning beli o‘ralgan. Qari kishi ishtonbog‘ bog‘laydi. Bu marosimni amalga oshirish barobarida yoshgina, murg‘ak lo‘li qizga qasam ichirilgan. Bobolariga, eliga, udumlariga, urug‘iga, eriga sodiq bo‘lishga, oilasini boqishga, o‘zini yomonlardan himoya qilishga qasam ichtirilgan. Tazyiqqa uchrasa, qarshilik qilishga, nomusini sotmaslikka, kuchi yetmay zo‘ravonlik qurboniga aylansa, o‘zini olovga tashlab o‘ldirishga qasam ichtirilgan [4].

Har yili bahor boshlanishida butun el imkoniyatidan kelib chiqib, o‘rtaga pul tashlab darveshona o‘tkazadi. Marosim yalanglikda o‘tkaziladi. Yosh-uqari barcha ishtirok etadi. Ehsan sifatida imkoniyati yetganlar qo‘y sadaqa qilib chiqaradi. Odatda bu tadbir Navro‘z oldi o‘tkaziladi. Qishloq ahli bir joyga to‘planadi. Osh qilib elga tarqatiladi. Duolar oqsoqollar tomonidan o‘qiladi.

Surxondaryo vohasida yashovchi lo‘lilarning milliy o‘ziga xos oilaviy marosimlari to‘g‘risida ham dala materiallari asosida to‘plangan ma‘lumotlarga qarab aytish mumkinki, ularda bola tushish xavfi bo‘lsa (homila) momolar o‘sha ayolning ko‘ylagi etagiga tuya junidan ip qilib tikib qo‘yishadi, kosadagi suvga 1 necha tillolarni solib qo‘yib, o‘sha suvni ichirishadi.

Kun issiq bo‘lgan vaqtlarda issiq urish holatlari ko‘p bo‘ladi. Tug‘dona novdasidan bo‘lgan asov qirindisi suvga solib ichilganda bu kabi noxush holatlarning oldi olingan. Bu usuldan o‘zlari foydalangan, boshqa issiq urganlarni ham davolashgan. Sadaqa so‘raganda hech vaqo bermaganlarga tug‘dona novdasidan kesib berib sotishgan. Mahalliy aholi tug‘donani ko‘zdan asraydi, deb undan qilingan tumorni yosh bolalar bo‘yniga, beshikka osib qo‘yishadi [5].

Ayollar oldinlari uyda bolali bo‘lishgan. Hozir ham ayrimlari uyda tug‘adilar. Doya momolar o‘zlarida bor. Chaqaloq kindigi olmos bilan kesiladi. Uyda tuqqanligi sabab bolalar uchun guvohnomani olish orqaga surilib ketadi. Tuqqan ayolga 20 kun atala qilib beriladi. Palov va piyoz yeyish mumkin emas.

Yosh bola 40 kunlik bo'lgunicha chilla qilinadi. Ya'ni er-xotinlik munosibati qilinmaydi, chaqaloq yotgan xonaga xom go'sht, issiq non olib kirilmaydi, ho'l soch bilan kirilmaydi. Janozaga borilmaydi. Chilla tushadi. Yosh bolaning tirnog'ini bobosi yoki momosi kulcha non ustiga oladi. Keyin mevali daraxt tagiga ko'madi. Chaqaloqning sochini yoshi keksa uch kishi qaychida oladi. Ota-ona ularga pul beradi. Ular duo qilishadi [6].

Chaqaloqlar beshikda, ko'pincha belanchakda yotishadi. Uyga mix qoqib arqon tortiladi. O'rtasiga ko'rpa to'shaladi, bola unga yotqiziladi.

Chaqaloqqa chilla qilinadi. Momolar beshikka belab berishadi. O'zbek xalqidagi chillaguzaron odati bu elatda yo'q. Yaqin-yaqin vaqtgacha bolalarning qulog'iga azon aytilmagan. Endilikda chaqaloqlar qulog'iga azon aytiladi.

Lo'li qishloqda bolaga beshik olishmaydi. Ona devorga tiranib o'tirib kecha-yukunduz oyoqda bolasini tebratadi. Bolani «Onam, otam, jonim» deb erkalatishadi. Ayrim xalqlarda ko'z tegmasin, deb hayvon nomlari bilan bolani chaqirishadi. Lo'lilarda unday emas.

Beshikni, imkoniyati bo'lsa, kelinning ota-onasi olib keladi, bo'lmasa o'zlari oladi. Yosh bolani beshikka yoshi katta kishi belaydi. 7 xil rangdagi ipni beshik bog'iga bog'laydi va «uyqumni berdim» deb 7 marta ipni tugun qilib bog'laydi. Bola 3 yoshgacha beshikda yotadi [7].

Lo'lilar islom diniga e'tiqod qilishadi. Namozxonlar hozirgi kunda ko'pchilikni tashkil qiladi. Lekin negadir Ro'za oyida fitr ro'zasini berasizlarmi, degan savolga rad javobini oldim.

Mehmonga kelganda, dasturxonga idishda tuz qo'yiladi. Mehmon «Bismillohi rahmoni rahim» deb tuz yalaydi. Mehmondorchilik tugaganda «Alhamdulillah rabbil olamiyn» deb yana tuz yalaydi. Tuz totdik, degan tushunchani berar ekan.

Yomon ish qilgan ayolni va erkakni to'dadan ajratishgan. Ichlarida bitta- yarimta o'g'ri chiqib qolsa, elning oldida yaxshilab do'pposlangan va to'dadan ajratishgan «Oilasichi?» degan savolimga «Oilasining aybi yo'q-ku, ularga teginishmaydi» degan javobni oldim [8].

Lo'lilardan kimdir kasal bo'lib qolsa, hamma ko'rishga boradi, mabodo og'ir kasal bo'ladigan bo'lsa, ko'rpa-to'shak qilib kasal tuzalguncha kasalxonaga borib yotib olishadi. Ko'rishga borganlarning hammasi dori uchun pul beradi. Qarindoshlar quda bo'lib, yoshlarning hayoti o'xshamay ajralib ketishsa ham aloqani uzishmaydi. Kek saqlashmaydi. Bir-birining holidan doim xabardor bo'lib turishadi. «Quda bo'ldim, judo bo'ldim» degan so'z ular uchun mutlaqo yotdir.

Kimdir (qo'shni bo'lgan urug', o'zbek yoki tojiklar) ular bilan janjallasha, birikib ketib o'zlarining urug'idan bo'lgan kishining yonini oladi.

Katta ishlar (to'ylar, uy qurishlar) hashar yo'li bilan qilinadi. Bir-biriga ishongani uchun birorta uyda darvoza, qo'shnilar o'rtasida devor yo'q.

Kiyinishga (ayollarning) hammaning ishi bor. Eldan chiqib kiyinmaydi. Uzun, keng ko'ylak, ishton, boshdan ro'mol tushishiga yo'l qo'yilmaydi. Janjal deyarli bo'lmas ekan, mabodo bo'lsa, oqsaqollarning o'zi borib yarashtirar ekan.

Bir yilda bolalik bo'lmasa, qiz boshqa birovga tegib ketadi, yigit boshqaga uylanadi. FXDYo dan bolalik bo'lgandan keyin o'tishadi [8].

Qadimda azada ayollar sadr aytib yig'lashgan. Aytuvchi yig'lovchilar bo'lgan. O'likning hasratini aytib yig'lashgan. Yig'lovchilar sadr aytgan ayollar atrofida aylanib «Xey yo xay», deb jo'r bo'lishgan. O'lganning xotini sochini, yuzlarini yulib qon chiqargan.

O'likni o'z suyagidagilar yuvadi. Agar mayit ayol kishi bo'lsa, yuvgan kishilarga 3 metrdan mato, yangi kalish, kir sovun beriladi. Mayit erkak kishi bo'lsa yuvishda ishtirok etganlarga yangi jelak va kalish beriladi.

Qabr to'rt burchak bo'lib, kindikkacha qaziladi. Ichkari uy dumaloq qilib kovlanadi. Ayolni qabrga tog'a qo'yadi. Begona ko'zdan asrash uchun qabr ustini mato bilan to'sib turishadi. 7 beldan tuproq tashlanadi.

O'lgan kuni yaqin qarindoshlari minglab kishilarga pul tarqatishadi. Bu odat «hayrot» deb ataladi. 3 yil ilgari bu odat to'xtatildi.

Yaqin qarindoshlar 2-3 yil ko'm-ko'k kiyim kiyishgan. Taqinchoqlar (uzuk, sirg'a)ni azadorlar taqishi mumkin emas, deb hisoblangan. Ayolning yoki erkakning qarindoshlari o'lsa, 40 kun bir-birlariga yaqinlashmaydilar. Hozir eng yaqin kishilar aza qilishadi. 60 yoshdan oshganlar uchun kiyimlar oq rangda, yoshlar uchun kiygan aza kiyimi ko'm-ko'k rangda bo'ladi.

Erkaklar soch-soqolini oldirib tashlashadi. O'lik chiqqan uyda olov yoqish mumkin emas. Yetti berilgan kuni olov yoqiladi [9].

Ertaga yetti degan kun kiyimlar yuviladi. O'zbeklarda bo'lgani singari ular tarqatilmaydi. Kiymoqchi bo'lgan kiyimlarni bolalariga beriladi. Qolganlari suvga ivitilib, chuqur kovlab unga ko'mib tashlanadi.

Avtohalokatga uchrab yoki boshqa bir holat bilan shayit bo'lgan kishining qon kiyimlari yuviladi va qabrining bosh tomoniga 5-6 bel chuqur kovlab ko'mib tashlanadi. Yoshiga yetmagan chaqaloq o'lganda ham fotiha olinadi, ko'ngil so'rab barcha qarindosh-urug'lar borishadi.

Qarindoshlar bir-birinikiga mehmonga ko'p borishadi. Yotib qolishadi. To'ydan, azadan qolishmaydi. Kasal bo'lsa, hamma borib ko'rishi shart. Hech bir kitobda yozilmagan lo'lilar qonuniyatidagi tahsinga sazovor shartlarning bir nechtasidir bular.

Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan folklorda turli urf-odatlar, marosim va irimlar bilan bog'liq qo'shiqlar yaratilgan. Shulardan «Yo, ramazon» hijriy yil kalendarining ramazon oyida

uyma-uy yurib aytiladigan qo'shig'i hisoblanadi. Sirtidan qaraganda «Yo ramazon» diniy mazmundagi qo'shiqqa o'xshasa-da unda uy egasiga bola ko'rishi, baxil bo'lmay saxiy bo'lish haqidagi tilaklar ustunlik qiladi.

Ramazon oyida ilgari oy boshlanganda 3 kun, oy tugashida 3 kun qolganda lo'lilar uyma-uy yurib ramazon qo'shiqlarini aytganlar. Hozir to'liq bir oy erkaklar (yosh, o'rta yosh, keksa yosh) ramazon qo'shiqlarini uyma-uy yurib, aytib yurishadi.

Surxondaryo viloyatidagi 15 ta tumanning sanoqli beshtasidagina lo'lilar istiqomat qilishadi. Ro'za tutiladigan ramazon oyida viloyat bo'yicha lo'lilar bormagan xonadon deyarli bo'lmaydi. Chiroyli shirali ovoz, so'zlardagi ma'no avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Yoshi keksa kishilar o'zlari bilan yosh bolalarni birga "Ramazon" qo'shiqlarini aytish uchun olib yurishadi [3].

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda madaniyatlararo o'zaro yaqinlashish jarayonlari milliy qadriyatlarining yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Har bir xalq o'zlikni anglash va tarixini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Bunda moddiy va ma'naviy madaniyat muhim hisoblangan. Ma'naviy madaniyat e'tiqod, an'ana va urf-odatlar tarkibida avloddan-avlodga meros bo'lib keladi. Surxondaryo vohasi lo'lilarining turmushini, madaniyatini yaqindan o'rganish o'z yechimini kutayotgan masalalardan bo'lib, bu boradagi izchil amaliy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 12.Гребенкин А.Д. Мелкие народности Заравшанского округа// Русский Туркистан. Сборник. Вып. II. М.: Университетская типография (Катков и К), 1872. – С.110-119.
2. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Denov, Jarqo'rg'on, Sherobod tumanlari 2021-2023-yillar.
3. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Ismoiltepa qishlog'i, 2022- yil avgust.
4. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Qorayantoq qishlog'i, 2022- yil iyun.
5. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on, Denov tumanlari, 2021- yil, avgust.
6. Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. – Toshkent: NIF MSH, 2021. – B. 288.
7. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Москва: Восточная литература, 2003. – С.193.

8. Гельвальд Ф. Естественная история племен и народов. Том II. - СПб.:
Издание А.С.Суворина, 1883. – С.812.